TOSHKENT VILOYATI PISKENT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 24 - fevral 22-10-142-Q/22 Piskent tuman hokimligi

Tumanda fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, umumta’lim maktablaridagi yoki o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining oktabr-noyabr oylarida ro‘yhatga olish to‘g‘risida.

Tumanda fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, umumta’lim maktablaridagi yoki o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining oktabr-noyabr oylarida harbiy ro‘yhatga olish, profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga tayyorlab borish hamda O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2021 yil 18 oktabrdagi 179-10-0-Q/21-son qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, umumta’lim maktablaridagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining bitiruvchilarini harbiy hisobga olishda, harbiy xizmatga doir ko‘nikmalarini o‘rganish, bilim darajasi, egallagan ixtisosligi, jismoniy tayyorgarligini va harbiy xizmatga yaroqliligini aniqlash maqsadida ularni har yilning oktabr-noyabr oylarida chaqiruv uchastkalarida alohida reja asosida ro‘yhatdan o‘tkazilsin.

3. Tuman hokimligi umumta’lim maktablaridagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining oktabr-noyabr oylarida fuqarolarni harbiy ro‘yhatga olish ishlarini talab darajasida amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi, tegishli korxona va tashkilotlar:

joriy yilning 10 oktabr kunidan tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga amaliy yordam berish uchun belgilangan tartibda tegishli xodimlarni ish joyi va oylik maoshlari saqlangan holda ajratsin;

ro‘yhatga olish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga ko‘maklashsin;

tuman Mudofaa ishlari bo‘limi 2021 yil 10 dekabr kuniga qadar umumta’lim maktablaridagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining bitiruvchilarini ro‘yhatga olish yakunlari to‘g‘risida viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasiga tegishli ma’lumotlar taqdim etsin.

5. Tuman Xalq ta’limi bo‘limi (X.Rashidov), Kasb-hunar maktablari (T.Azamatov, Sh.Soatov), Mudofaa ishlari bo‘limi (A.Toshmatov) bilan birgalikda umumta’lim maktablaridagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining bitiruvchilarini tuman Mudofaa ishlari bo‘limining rejasiga asosan ro‘yhatga olinishi uchun ularning ishtirokini ta’minlasin.

6. Tuman Tibbiyot birlashmasi (M.Qodirova) o‘smirlarni ro‘yhatga olish davrida tuman Mudofaa ishlari bo'limi talabnomasiga asosan tuman chaqiruv uchastkalarida zarur tibbiyot anjomlari bilan ta’minlangan tibbiy komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin.

7. Tuman hokimining o'rinbosari (S.Xamdamov), Mudofaa ishlari bo‘limi (A.Toshmatov) o‘smirlar haqidagi aniq ma’lumotlarni jamlab, o‘smirlarni alohida harbiy hisobga olinishini, umumta’lim maktablaridagi va o‘rta maxsus ta’lim muassasalaridagi fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida harbiy hisobga olish ishlari to‘grisida viloyat hokimligiga ma’lumot taqdim etilishini ta’minlasinlar.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Xamdamov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **R.Rixsiyev**

Пискент туман ҳокимининг
2022 йил 24 февралдаги
22-10-142-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish ro‘yhatga olish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkazuvchi shifokorlar

TARKIBI:

№	Shifokorlarning Ismi, sharifi (asosiy)	Mutaxassisligi	Shifokoralrning ismi, sharifi (dublyor)
1	Umarova K.	Terapevt	Atamurodova N.
2	Ganiyev A.	Koj.Vener	Xoliqulov U.
3	Boymurodova S.	Nervapotolog	Axrorova M.
4	Xaydarov Y.	Oftalmolog	Ibragimova F.
5	Umirzoqova M.	Otolarin-golog	Maripova D.
6	Zoirov B.	Jarrox	Bekov A.
7	Karimova X.	Stomatolog	Mamajonova X.
8	Nazirqulov A.	Psixiator	Raimjonova Z.
9	Raximova N.	EKG xamshira	Temirxonova G.
10	Fayziyeva S.	LOR xamshira	Mamakulova M.
11	Oqilova M.	Antropometriya xona xamshirasi	Anorboyeva S.
12	Mamatqulova M.	Antropometriya xona xamshirasi	Yuldosheva M.
13	Abdullayeva N.	Oftalmolog xamshirasi	Raxmatova Sh.
14	Kotiba		Abdullayeva N.

Пискент туман ҳокимининг
2022 йил 24 февралдаги
22-10-142-Q/22-сон қарорига
2-илова

Tumanda fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, umumta’lim maktablaridagi yoki o‘rta-maxsus ta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining oktabr-noyabr oylarida ro‘yxatga olish komissiyasiga texnik xodimlar ajratish zarur bo'lgan tashkilotlar ro`yxati:

№	Korxona va tashkilot nomi	Texnik xodimlar soni
1	Tuman Axborot kutubxona markazi	1
2	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	1
3	Tuman Qishloq va suv xo`jalik bo`limi	1
4	Tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastr bo`limi	1